

ITUZUM (*SOLANUM NIGRUM L.*) NING DORIVORLIK

## XUSUSIYATLARI

ЛЕЧЕБНЫЕ СВОЙСТВА ПАСЛЁНА ЧЁРНОГО (*SOLANUM NIGRUM L.*)MEDICINAL PROPERTIES OF *SOLANUM NIGRUM* (*SOLANUM NIGRUM L.*)

*Yursunova O‘g‘iloy Mamitali qizi*

*Farg‘ona Davlat Universiteti*

*biologiya yo‘nalishi 2- bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ituzum-(*Solanum nigrum L.*) o‘simgili xalq taboboti va ilmiy tibbiyatda keng qo‘llaniladi. Uning barglari, mevalari va ildizlari tibbiy xususiyatlarga ega bo‘lib, og‘riq qoldiruvchi, yallig‘lanishga qarshi va tinchlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi. Ituzum tarkibidagi alkaloidlar va flavonoidlar organizmga foydali ta’sir ko‘rsatib, jigar va oshqozon-ichak kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Shuningdek, u teri kasalliklarida va imunitetni mustahkamlash uchun ham qo‘llanadi.

**Kalit so‘zlar:** alkaloid , vitamin, poya, barg, buyraksimon, begona o‘t , ildiz, glikoalkaloid, shifobaxsh gultoji , tuxumsimon, urug ‘, gul, meva, saponin.

**Аннотация:** Черный паслен-(*Solanum nigrum L.*) широко используется в народной и научной медицине. Его листья, плоды и корни обладают лечебными свойствами, оказывая обезболивающее, противовоспалительное и успокаивающее действие. Алкалоиды и флавоноиды, содержащиеся в черном паслене, оказывают благоприятное воздействие на организм и применяются при лечении заболеваний печени и желудочно-кишечного тракта. Кроме того, он используется при кожных заболеваниях и для укрепления иммунитета.

**Ключевые слова:** алкалоид, витамин, стебель, лист, почковидный, сорняк, корень, гликоалкалоид, лекарственное растение, семяпочка, семя, цветок, фрукты, сапонин

**Annotation:** *Solanum nigrum*-(*Solanum nigrum L*) is widely used in both traditional and scientific medicine. Its leaves, fruits, and roots possess medicinal properties, providing analgesic, anti-inflammatory, and sedative effects. The alkaloids and flavonoids found in black nightshade have beneficial effects on the body and are used in the treatment of liver and gastrointestinal diseases. Additionally, it is applied in the treatment of skin disorders and for boosting immunity.

**Keywords:** alkaloid, vitamin, stem, leaf, kidney-shaped, weed, root, glycoalkaloid, medicinal plant, ovule, seed, flower, fruit, saponin.

## KIRISH

Ituzum (*Solanum nigrum L.*) bo‘yi 75-100 sm ga yetadigan bir yillik-begona o‘t. Poyasi tik o‘sadi, ba’zan yotib o‘sadi. Bargi to‘q yashil, uzunchoq-tuxumsimon, rombsimon, o‘rtasidan uchiga biroz siqilib boradi. Qirrasi tishsimon qirqilgan, ba’zan silliq. Gultoji oq rangli, urug‘lari sariq, buyraksimon shaklda. Ituzum iyun oyidan sentyabrgacha gullaydi, mevasi iyul-noyabr oylarida pishadi. U begona o‘t sifatida bog‘lar, poliz. g‘o‘za va boshqa ekinlarning orasida tarqalgan. Mevasining sharbatida saponin alkaloidi, lasonin, solalgargin, qand, pektin. 7-10% tanid moddalari mavjud. Pishgan mevasi vitaminlarga boy, 89 mg% A va 1630 mg% C vitaminlari mavjud(1-rasm).





1- rasm. Ituzum-(*Solanum nigrum L.*) umumiy ko‘rinishi.

### Toksikologik xususiyatlari.

*Solanum nigrum*ning shifobaxsh xususiyatlari qaramay, uni ehtiyotkorlik bilan ishlatish zarur. Chunki o‘simlikning tarkibidagi steroid glikoalkaloidlar, xususan, solasonin yuqori dozalarda hujayra membranalariga zarar yetkazishi mumkin. Bu esa oshqozon-ichak shilliq qavati shikastlanishi, asab tizimi buzilishi va og‘ir holatlarda nafas olish yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, tibbiyotda ushbu o‘simlikdan foydalanishda aniq dozalar va xavfsizlik choralar joriy etilishi lozim

Ituzum-(*solanum nigrum L.*) shifobaxshligi haqida.

Ituzum-(*Solanum nigrum L.*) o‘simligining shifobaxsh xususiyatlari va tibbiyotdagi ahamiyati beqiyosdir. Ushbu o‘simlik fitokimyoviy moddalar, jumladan, alkaloidlar, flavonoidlar, saponinlar, taninlar va glikozidlarga boy. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, glikoalkaloidlar, xususan, solasonin va solamargin o‘simlikning asosiy bioaktiv komponentlaridir. Bu moddalar ayniqsa saratonga qarshi tadqiqotlarda katta qiziqish uyg‘otgan. So‘nggi yillarda Ituzumning o‘sma hujayralariga ta’siri chuqur o‘rganildi. In vitro va in vivo tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu o‘simlik ekstrakti bachadon bo‘yni saratoni, ko‘krak bezi saratoni va oshqozon osti bezi saratoni kabi turli o‘sma hujayralari o‘sishini bostirishga qodir. Bu ta’sir mexanizmlari orasida apoptoz (o‘sma hujayralarining dasturlangan o‘limi) va avtofagiya induksiysi, shuningdek, metastazni oldini olish jarayonlari kuzatilgan. Ushbu o‘simlik insonlarda uchrovchi turli xil kasallikkarga davo bo‘la oladi. U kuchli yallig‘lanishga qarshi va antioksidant xususiyatlarga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘simlik tarkibidagi polifenollar va polisakkaridlar fermentlarining faolligini bostiradi. Bu esa organizmda yallig‘lanish jarayonlarini kamaytirishga va saraton rivojlanishining oldini olishga yordam beradi.

### XULOSA

Ituzumning ko‘plab shifobaxsh xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular orasida saratonga qarshi, yallig‘lanishga qarshi, antioksidant, jigarni himoya qiluvchi va asab tizimini qo‘llab-quvvatlovchi ta’sirlar bor. Shunga qaramay, o‘simlikdan tibbiyotda



foydalinish uchun xavfsizlik choralarini yanada chuqurroq o‘rganish lozim. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu o‘simlik asosida samarali va xavfsiz dori vositalarini ishlab chiqish, aniq dozalar belgilash va yangi terapevtik qo‘llanilish yo‘nalishlarini aniqlashga qaratilishi kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Tojiboyev, Sh.J., Qarshiboyeva, N.H. (2015). Botanika (yuksak o‘simliklar sistematikasi). Namangan.
2. Pratov, O‘. (2010). Botanika (morfologiya, anatomiya, sistematika, geobotanika). Toshkent.
3. Sobirov, I.A. (2023). Farmakognoziya. Andijon.
4. (2018). O‘zbekistonning foydali o‘simliklari. Guliston.